
MEHNATOBOD MAHALLASINING ICHKI YO'LLARI RAVON BO'LMOQDA

Keyingi yillarda Toshloq tumanida ham aholini turmush sharoitini yaxshilash, mahallalarda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish maqsadida keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

Xususan, shu kunlarda davlat dasturi doirasida Mehnatobod mahallasining 5,8 km yo'liga asfalt yotqizish ishlari amalga oshirilib, ko'p yillardan buyon mahalla aholisini qiynab kelayotgan yo'l muammosi bartaraf etilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlardan mahalla ahli behad mamnun.

Bu ishlar natijasida mahallada aholi yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilib, hudud ko'rkam va zamonaviy qiyofa kasb etmoqda.

Ayni kunlarda yo'l qurilishi korxonasi tomonidan 4 ta ichki ko'chalarda asfaltlash ishlari davom etmoqda.

2023-10-03 17:20:21